



## ТАСВИРИЙ САЪНАТ

---

### BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARINI RANGLAVHALAR ISHLASHGA O‘RGATISHNING KREATIV TEXNOLOGIYALARI

*Talipov N.X.*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
“Tasviriy san‘at” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.*

**Tayanch so‘zlar:** tasviriy san‘at, ranglavha, rasm, kompozitsiya, rang va tus munosabatlari, manzara, kreativ texnologiya, rassom-pedagog, ko‘nikma, mahorat.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, этюд, рисунок, композиция, цвет и цветовые отношения, пейзаж, креативные технологии, художник-педагог, умение, мастерство.

**Key words:** fine art, sketch, drawing, composition, color and color relations, landscape, creative technology, art teacher, artist, master.

Tasviriy san‘at asoslarini mukammal o‘zlashtirish talabaga tabiatdagi barcha shakllar tuzilishi to‘g‘risidagi qonuniyatlarini to‘g‘ri ko‘rish va tushunishga, ko‘rganini haqqoniy tasvirlashga yordam beradi. Biroq, kelgusida mahoratli rassom-pedagog bo‘lish uchun bular hali yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaba qo‘yilmadan rasm chizishning asosiy qonun-qoidalarini to‘g‘ri tushunib eslab qolsada, ammo egallagan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olmaslik holatlari uchrab turadi. Shuning uchun talaba nazariy bilimlardan tashqari tasviriy san‘atda ijro va texnik mahoratiga ham ega bo‘lishi kerak. Talabalarga samarali bilim berishda kreativ texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kreativ texnologiyalar bu ijodiy qobiliyat va imkoniyatlarni maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy uslub va usullar majmuasidir. Kreativ texnologiyalarning vazifalari ijodiy fikrlashni rivojlantirish, g‘ayrioddiy g‘oyalarni doirasini kengaytirish, yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud g‘oyalarni esa qayta takomillashtirishdan iboratdir. Ustoz talabalar bilan ham nazariy, ham amaliy mashqlar jarayonida shu narsalarga jiddiy yondashishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Talaba amaliy mashqlar jarayonida texnik jihatdan qiynalmasligi zarur. Texnik mahoratlarni erkin va mohirlik bilan egallash talabaning ijodga to'la berilishini, ijodiy qobiliyatlarni amalga oshirishni va yuqori malakali rassom-pedagog bo'lish imkonini beradi. Tasvirlash mahorati va texnikasini chala egallagan talaba o'zini amaliy ish jarayonida erkin his eta olmaydi va natijada o'z fikri, hissiyotlarini mukammal ifoda etmaydi. Bu barcha san'at turlari, ayniqsa, tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvir uchun taalluqlidir. Qadimgi akademik ta'lim maktablarida tasvirlash texnikasiga katta e'tibor berilgan. Shuningdek, mohir rassomlar avvalo rasm chizish mahorati bilan birinchi bor tanishishda shogirdlarga vazifa sifatida taniqli rassomlar namunalaridan nusxa ko'chirish uchun berganlar va unda asosiy e'tibor tasvir bajarish texnikasiga qaratilgan. Bularni Jul'en, A.T.Skino, V.V.Pukirev, A.K.Savrasovlarning qo'llanmalarida ko'rish mumkin. Shuningdek, bunday ajoyib tarzda ishlangan san'at asarlarini biz Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzodning Xuroson podshosi Sulton Xusayn Boyqaro portretini oddiy chiziqlar texnikasi orqali naqadar tugal va nafis tarzda yaratilganligini guvohi bo'lamiz.

Talabaning egallab borayotgan mutaxassislik mahorati nafaqat uning pedagogik, ta'lim jarayoni sifatini belgilaydi, balki uning ijodiy qobiliyatlarini namoyon bo'lishiga yordam beradi. Qobiliyat har qanday buyuk shaxs iste'dodining asosini tashkil etadi. Ko'nikmalar – bu har qanday ijodiy ishning, shuningdek tasviriy faoliyatning asosidir. Ko'nikmalar mashqlar bajarish jarayonida mustahkamlanib boradi. Mashqlar aniq ishlab chiqilgan va tartibga ega tizimga asoslangan bo'lishi kerak. Masalan, qalamtasvir mashqlarini bajarish jarayonida talaba shtrixlar tortish va buyum shaklini va hajmini to'g'ri ifodalashi uchun qo'llarni erkin harakatlantirishga o'rgatishi hamda barmoqlar harakatlarini bir maromga yetkazishi kerak. Ko'p yillik ilmiy izlanish, pedagogik faoliyat natijalari va tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, qo'lni harakatlantirish ko'nikmalari va rasm chizish bo'yicha amaliy mashqlar uchta bosqichda namoyon bo'ladi:

Qo'lni turli harakatlarga o'rgatish va bir qator alohida mashqlarni bajarish (doiraviy, yarim doiraviy, vertikal va gorizontal chiziqlar tortish va x.k.).

Tasviriy faoliyat jarayonida qo'l muskullarini erkin harakatlanishiga erishish lozim. Qo'lning qog'oz yuzasidagi harakatlari ko'nikmalarini takomillashtirish va naturani kuzatib, tasvirlashda texnik mahoratlarni rivojlantirish (vazifaning mohiyatidan kelib chiqib, ishning kerakli joylariga urg'u berish, ikkinchi darajali bo'laklariga yengil chiziqlar tortish v. b.) zarur.

Talabalarga qo'lni to'g'ri tutib rasm chizishga o'rgatish o'quv vazifalarini bajarish jarayonining dastlabki bosqichidanoq olib borilishi kerak. Keyinchalik



esa uni naturadan rasm bajarish vaqtida qo‘llanishi lozim bo‘lgan texnik usullar o‘rgatilishi kerak. Bu esa talabning ijodiy qobiliyatini to‘g‘ri rivojlantirishga imkon beradi.

Tasviriy san‘atda qisqa muddatli ranglavhalar ishlash bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak maktab o‘quvchilariga tasviriy san‘at orqali badiiy ta‘lim berish dolzarb vazifalardan biridir. Tasviriy san‘atdan malakali pedagog kadrlar tayyorlashda o‘quvchilarga jismlarni qo‘yilmaga qarab to‘g‘ri tasvirlash mashqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lajak rassom-pedagogning tasviriy san‘at sohasidagi mahoratini takomillashtirish, auditoriyalardagi qo‘yilmalarni haqqoniy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Qo‘yilmadan rasm chizish mashg‘ulotlarida o‘quvchi avvalo turli shakllarning o‘ziga xos tomonlarini to‘g‘ri ko‘rishni o‘rganadi. Ma‘lumki, insonlar jismlar va ularning tasvirini turlicha tasavvur etadilar. Bu esa birinchi navbatda har bir insonning ko‘z tuzilishiga va ayniqsa tasviriy san‘at borasida ko‘rish qobiliyatiga bog‘liq. Rasm chizishni o‘rgatishda asosiy vazifa, bu rassomda jism shaklini masofadan ko‘rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Buyum shaklini masofadan (kenglikda) ko‘rish va tasvirlash – buyumni «to‘la hajmda», uch o‘lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko‘rish demakdir. Xaqqoniy rasm chizish ko‘z bilan o‘lchash, masofa va buyum o‘lchamlarini ko‘zda chamalash, va qo‘yilmani to‘g‘ri anglash orqali erishiladi. Bunday hollarda buyum o‘lchami va masofani aniqlash uchun ko‘z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chamalash qobiliyatlarini bo‘lajak pedagogni o‘z ishlariga nisbatan e‘tiborli, mas‘uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi, ularda atrofda buyum va shakllarni sinchkovlik bilan tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan qiyofani eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Chamalash qobiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko‘z bilan nisbatni aniqlab turish yaxshi natija beradi. Ko‘rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e‘tiborli hislati bo‘lib, u orqali buyum shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni xotiradan, tasavvur va anglash asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmuncha engillashtiradi.

Qo‘yilmadan rasm chizish bo‘yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko‘rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, endigina qabul qilingan o‘quvchilar orasida ko‘proq o‘tkazilishi samarali natija beradi. Bu esa o‘quvchilarda buyumlarning shakli, konstruktiv qurilishi, nisbatlari va plastikasi to‘g‘risidagi tasavvurlarni xotirada yanada uzoq saqlashga yordam beradi. O‘quvchilar dastlabki ta‘lim bosqichida odatda chizayotgan narsani

yuzaki huddi aynan ko'chirishga harakat qiladilar. Ular diqqat bilan oldinma ketin narsalarga tikilib qarashadi, so'ngra har bir mayda bo'laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo'yashadi. Natijada tasvir maydalangan va bir butun ko'rinishda bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar qo'yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlarini etyud (ranglavha)da ko'rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Inson bosh qismini to'g'ri tasvirlashda ham masalan yuzning mayda bo'laklaridan boshlab bo'lmaydi, faqat harakatdagi nisbatlarda umumiylik va yaxlitlikdan boshlashi rangtasvirda esa ham turli natura ob'ektlari (natyurmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura ob'ektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga manzara ob'ektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlashga o'tishi mumkin.

Ochiq havo (plener) da kichik xajmdagi etyud (ranglavha)larni turli ranglar vositasida ishlashda avvalo, asosiy rang munosabatlarini aniq topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko'rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog'larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o'lchamdagi etyudlarda mayda bo'laklarga e'tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo'lmagan syujetlar tanlanadi (masalan uy bilan hovlining bir bo'lagi).

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib, ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o'tiladi. Tabiat ko'rinishlarini tasvirlash yosh rassomdan tajriba talab etadi. Dastlabki mashqlarda o'quvchi tabiatdagi alohida detallarni (tosh, gullar, daraxt shoxlari, meva-sabzavotlar) ni tasvirlab o'rgana boradi. Keyinchalik kichik bir xarakterli ko'rinishlarni ishlab o'z malakalarini oshirib boradilar. Shu orqali ranglarni tabiatdagi ko'rinishini his qila boradilar. Natijada bo'lajak kompozitsiyalar uchun yangi g'oyalar tug'iladi. Ranglavha ishlashda yosh ijodkor osmon va bulutlar, tog'lar, daraxt va o'simliklar hamda suvga e'tiborni qaratishi kerak. Tabiatning go'zal va maftunkor bir bo'lagiga diqqatni jalb etib, qog'oz, karton, yoki matoga mohirlik bilan joylashtirib olish asosiy vazifalardan biridir. Yaxlit ranglar orqali ranglavha kompozitsiyasi ishlanib, so'ngra katta o'lchamdagi qog'ozga ko'chiriladi. O'quvchi asar kompozitsiyasini ishlar ekan, albatta o'zining ichki xissiyotlarini ham, kompozitsiyada ko'rsatib, san'at ixlosmandlarini o'yg'a toldiradi. Bu endi albatta ijodkor mahoratiga bog'liq. Tinimsiz va muttasil mashqlar bajarish, izlanish rassomni mahoratini oshishiga olib keladi. Ranglavha ishlash katta asar yaratish oldidan tayyorgarlik bosqichi desa ham bo'ladi. Tabiat go'zalligi doimo insonlarni o'ziga





holda etyudning umumiy tus va rang holatini qanday ko‘rinishini namoyish etiladi.

Koloritga ya‘ni rang qatorining birligi va uyg‘unligiga hos qisqa fursatli etyudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo‘yilmalarda qandaydir ma‘lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan natyurmortni sun‘iy issiq yorug‘lik bilan yoritish mumkin. Bunday etyudlarda mayda bo‘laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo‘q. Muhimi, rang gammasini uning birligi va uyg‘unligini tushunib tasvirlashdan iboratdir. Qisqa muddatli etyudlardagi qo‘yilmalarni issiq va sovuq ranglarda almashtirib tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Yosh rassomning tinmay izlanishlari, mashqlari natijasida ranglardagi nozik o‘zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashiga zamin yaratadi. Tajribali rassomlarning etyudlarini kuzatganda ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraymiz. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahoratiga uzluksiz amaliy ishlash natijasida erishiladi.

Shunday qilib naturaning asosiy ob‘ektlari orasidagi umumiy va katta ranglar munosabatini ma‘lum tus va ranglar ko‘lamida saqlanganligi rangtasvirning asosidir. Bular asosida ob‘ektlarning keyingi ranglarda ishlashning o‘ta nozik jarayoni amalga oshiriladiki, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir.

Har qanday natura qo‘yilmasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Natyurmortning turli narsalardan tuzilganligini masalan qumg‘on, olma, piyola; manzarada esa – alohida osmon, o‘rmon va yiroqdagi ko‘kimtir tog‘larni ma‘lum vaqtga yoddan chiqarish kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko‘rish mumkin xolos lekin tasvirlash lozim bo‘lgan ranglarni emas. Naturaning barcha narsalari yoki ob‘ektlari – bu rangli kartinaning bir qismi xolos, ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligini tasvirlash mobaynida namoyon bo‘ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdirasilov S.F., Talipov N.X. Rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: NISO – POLIGRAF, 2017, 111-b.
2. Азимова Б.З. Натюрморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1984. 22-б.
3. Abdirasilov S.F., Talipov N.X., Rangtasvir. Darslik – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019, 118-b.
4. Gulyamov K.M. Modern technologies for the development of professional competence of teachers of applied arts // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation (TJPR) ISSN:2651-4451 E-ISSN:2651-446X VOLUME 32, ISSUE 3, 2021. – P. 33734-33744. <https://turkijphysiotherrehabil.org/pub/pdf/321/32-1-3686>.



5. Gulyamov K.M. Development of artistic and creative abilities of future pedagoguesartists in the process of professional training in higher education institutions // Neuroquantology, eISSN 1303-5150, Volume 20, Issue 12, october 2022, – P. 3400-3408. <https://www.neuroquantology.com/article.php?id=8994>

#### **РЕЗИОМЕ**

Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga qisqa muddatli ranglavhalar ishlash bo'yicha asosiy amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda qo'llaniladigan individual metodlarning xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif mavzuni yoritishda ilmiy manbalardan maqsadli foydalangan.

#### **РЕЗИОМЕ**

В статье даны основные практические рекомендации будущим учителям изобразительного искусства по выполнению краткосрочных этюдов, а также описаны особенности индивидуальных методов, используемых в этом направлении. Также для освещения темы автор целенаправленно использовал научные источники.

#### **SUMMARY**

The article provides basic practical recommendations for future fine arts teachers on how to perform short-term sketches, and also describes the features of individual methods used in this direction. Also, to highlight the topic, the author purposefully used scientific sources.